



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOB VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOB VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOB VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC instituti “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITING TASHKILIY TA'MINOTI

Ibragimov Mansur Mardonovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
e-mail: mansur.ibragimov.63@mail.ru

Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
e-mail: sarvartursunboyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada savdo korxonalarida tovar operatsiyalari auditing tashkiliy ta'minoti, uning nazariy asoslari va amaliy jihatlari o'rganilgan. Tovarlarni qabul qilish, saqlash, realizatsiya qilish hamda hisobdan chiqarish jarayonlarida auditorlik tekshiruvlarini tashkil etishning muhim yo'nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, auditni rejalashtirish, auditorlik dalillarini yig'ish, ichki nazorat tizimini baholash va audit risklarini aniqlash masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijasida savdo korxonalarida tovar operatsiyalari auditing samaradorligini oshirish va auditorlik nazoratini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: savdo korxonasi, tovar operatsiyalari, audit, auditorlik tekshiruv, auditorlik dalillari, ichki nazorat, audit riski, inventarizatsiya, tovar hisobi, auditorlik hisoboti.

Abstract: This article examines the organizational support of auditing goods transactions in trading enterprises, including its theoretical foundations and practical aspects. The study analyzes the key areas of organizing audit procedures related to the receipt, storage, sale, and write-off of goods. Particular attention is paid to audit planning, collection of audit evidence, evaluation of internal control systems, and identification of audit risks. Based on the research findings, scientific and practical recommendations have been developed to improve the efficiency of auditing goods transactions and enhance audit control in trading enterprises.

Keywords: trading enterprise, goods transactions, audit, audit examination, audit evidence, internal control, audit risk, inventory count, goods accounting, audit report.

Абстрактный: В данной статье исследованы вопросы организационного обеспечения аудита товарных операций в торговых предприятиях, его теоретические основы и практические аспекты. Проанализированы основные направления организации аудиторских проверок процессов поступления, хранения, реализации и списания товаров. Освещены вопросы планирования аудита, сбора аудиторских доказательств, оценки системы внутреннего контроля и выявления аудиторских рисков. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на повышение эффективности аудита товарных операций и совершенствование аудиторского контроля в торговых предприятиях.

Ключевые слова: торговое предприятие, товарные операции, аудит, аудиторская проверка, аудиторские доказательства, внутренний контроль, аудиторский риск, инвентаризация, учет товаров, аудиторский отчет.

Kirish (Введение/Introduction).

Bugungi globallashuv sharoitida dunyo hamjamiyati o'zaro integratsiya bog'lash maqsadida kelishuvlarga erishib kelmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad tovarlar oldi-sotti jarayonini yanada takomillashtirish buyuk Ipak yo'lini qaytatdan tiklash sharh bilan g'arb o'rtasida o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish orqali tovarlar oldi-sotti hajmini oshirish hisoblanadi. Bunday muhim jarayonning ishtirokchilari savdo korxonalarida hisoblanadi. Bu jarayonda savdo korxonalarida muhim tadbirkorlik subyekti sifatida davlat tomonidan bu subyektlardagi hisobni haqqoniylikni tekshirish muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Tekshirish uchun esa albatta auditorlik faoliyati muhim bo'g'in bo'lib hisoblanadi. Barcha faoliyatlar singari auditorlik faoliyati ham samarali bo'lishi uchun o'zining tashkiliy ta'minotiga ega bo'lishi lozim. Auditing tashkiliy ta'minoti deganda, odatda, uni o'tkazishni rejalashtirishdan tortib, to uni yakunlash hamda natijalarini mijozga topshirishgacha bulgan ishlar majmuasi tushuniladi. Mazkur ishlarni belgilangan talablarga asosida yo'lga qo'yilishi va amalga oshirilishi auditorlik tekshiruv sifatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Savdo korxonalarida tovar operatsiyalari auditing tashkiliy ta'minoti masalasi buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Savdo korxonalarida faoliyatida tovarlar asosiy aylanma aktivlar tarkibiga kirishi sababli ularning harakati, saqlanishi va realizatsiyasi ustidan samarali nazorat o'rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. Audit jarayoni esa ushbu operatsiyalarning qonunchilik talablariga va buxgalteriya hisobi tamoyillariga muvofiqligini baholashning muhim vositasi hisoblanadi [1].

Xalqaro amaliyotda tovar operatsiyalari auditing tashkiliy asoslari auditorlik faoliyatining riskga yo'naltirilgan yondashuvi bilan bog'liq holda rivojlanmoqda. Xalqaro audit standartlariga ko'ra, auditor tekshiruvni rejalashtirish jarayonida korxonaning ichki nazorat tizimi holatini baholashi va tovar operatsiyalari bilan bog'liq muhim xatoliklar xavfini aniqlashi lozim. Ushbu yondashuv audit resurslaridan samarali foydalanish va audit sifatini oshirish imkonini beradi [2].

So'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda savdo korxonalarida tovar operatsiyalarini audit qilishda ichki nazorat tizimining ahamiyati alohida ta'kidlanmoqda. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, tovarlarni qabul qilish, saqlash va realizatsiya qilish jarayonlarida samarali ichki nazorat tizimining mavjudligi auditorlik risklarini kamaytiradi hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchligini oshiradi [3].

Buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha zamonaviy ilmiy manbalarda tovar operatsiyalari auditida inventarizatsiya o'rni muhim ekanligi qayd etilgan. Inventarizatsiya auditor uchun tovarlarning haqiqiy mavjudligini aniqlash va hisob ma'lumotlarining ishonchligini baholash imkonini beruvchi asosiy audit amallaridan biri hisoblanadi. Shu sababli inventarizatsiya natijalari auditorlik dalillarining muhim manbasi sifatida e'tirof etiladi [4].

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida olib borilgan tadqiqotlarda tovar-moddiy xaziralarning baholanishi va hisobotlarda aks ettirilishi auditorlik tekshiruvining asosiy obyektlaridan biri sifatida qaraladi. Tovarlarning tannarx bo'yicha baholanishi, qadrsizlanishini aniqlash va realizatsiya qiymatini baholash masalalari audit natijalarining obyektivligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [5].

Zamonaviy audit amaliyotida raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarining keng qo'llanilishi tovar operatsiyalari auditing tashkiliy

ta'minotni yangi bosqichga olib chiqmoqda. ERP tizimlari, elektron ombor hisobi va ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari auditorlarga katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash va audit dalillarini yanada aniq shakllantirish imkonini bermoqda [6].

Ilmiy adabiyotlarda auditning tashkiliy ta'minoti auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirish, ishchi hujjatlarni shakllantirish, auditorlik dalillarini yig'ish va audit natijalarini rasmiylashtirish kabi bosqichlarni o'z ichiga oluvchi yaxlit tizim sifatida talqin qilinadi. Ushbu tizimning samarali tashkil etilishi auditorlik xulosalarining sifatiga bevosita ta'sir qiladi [7].

O'zbekiston iqtisodiyotida ham savdo korxonalarida auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Auditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish, auditorlar malakasini oshirish va audit sifatini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish ushbu jarayonning muhim yo'nalishlari hisoblanadi [8].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, savdo korxonalarida tovar operatsiyalari auditining tashkiliy ta'minotini takomillashtirish auditning riskga asoslangan yondashuvini qo'llash, ichki nazorat tizimini mustahkamlash, raqamli texnologiyalardan foydalanish va xalqaro audit standartlari talablarini amaliyotga keng joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin [9].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Mazkur tadqiqot savdo korxonalarida tovar operatsiyalari auditining tashkiliy ta'minotini takomillashtirish masalalarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, uning metodologik asosini audit nazariyasi, buxgalteriya hisobi konsepsiyalari, xalqaro audit standartlari hamda tovar-moddiy zaxiralari hisobi va nazoratiga oid ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda savdo korxonalarida tovar operatsiyalarini audit qilishning tashkiliy mexanizmlari, audit jarayonlarini rejalashtirish, auditorlik dalillarini shakllantirish va audit natijalarini baholash masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks ravishda foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez usuli yordamida savdo korxonalarida tovar operatsiyalari auditining nazariy asoslari, uning iqtisodiy mazmuni va amaliy ahamiyati o'rganildi. Ushbu usul auditning tashkiliy elementlarini alohida qismlar bo'yicha tahlil qilish va ularni yagona tizim sifatida baholash imkonini berdi.

Induksiya va deduksiya usullari asosida tovar operatsiyalari auditiga oid xalqaro va milliy tajribalar o'rganilib, umumiy qonuniyatlardan hamda mavjud muammolar aniqlandi. Mazkur yondashuv savdo korxonalarida audit jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli keng qo'llanilib, xalqaro audit standartlari talablari bilan amaldagi audit amaliyoti o'rtasidagi farqlar tahlil qilindi. Xususan, auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirish, audit risklarini baholash, auditorlik dalillarini yig'ish va ichki nazorat tizimini baholash jarayonlari solishtirildi. Natijada savdo korxonalarida audit sifatini oshirish imkoniyatlari aniqlandi.

Me'yoriy-huquqiy tahlil usuli orqali audit faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari, xalqaro audit standartlari, buxgalteriya hisobi standartlari va savdo korxonalarida faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar o'rganildi. Ushbu usul auditning tashkiliy-huquqiy asoslarini baholash va mavjud me'yoriy bazaning audit amaliyotiga ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqot davomida iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanilib, savdo korxonalarida tovarlar harakati, tovar qoldiqlari, realizatsiya hajmlari va inventarizatsiya natijalari bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Bu audit jarayonida muhim risk zonalarini aniqlash va auditorlik tekshiruvlarining ustuvor yo'nalishlarini belgilashga yordam berdi.

Tadqiqotda sistemali yondashuv asosida tovar operatsiyalari auditini korxonaning ichki nazorat tizimi, buxgalteriya hisobi, ombor xo'jaligi va moliyaviy hisobotlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan yagona boshqaruv jarayoni sifatida ko'rib chiqildi. Ushbu yondashuv auditning tashkiliy ta'minotini kompleks ravishda baholash imkonini yaratdi.

Bundan tashqari, riskga asoslangan audit metodologiyasi qo'llanilib, tovar operatsiyalari bilan bog'liq muhim xatoliklar va firibgarlik xavflari baholandi. Tovarlar qabul qilish, saqlash, ombordan chiqarish va realizatsiya qilish bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan audit risklari aniqlanib, ularni kamaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot davomida ilmiy abstraksiyalash va mantiqiy umumlashtirish usullari yordamida audit jarayonlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy model shakllantirildi. Ushbu model xalqaro audit standartlari, zamonaviy axborot texnologiyalari va ichki nazorat tizimi elementlarini o'zaro integratsiyalash asosida ishlab chiqildi.

Umuman olganda, tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar savdo korxonalarida tovar operatsiyalari auditining tashkiliy ta'minotini chuqur o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va audit samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Auditni rejalashtirish masalalariga "Rejalashtirish" (300-399) deb nomlangan xalqaro standartlar bag'ishlangan va ular uchta standartdan iborat:

"Rejalashtirish" (300) deb nomlangan auditning xalqaro standartlari (AXS) o'z navbatida tarkibiy tuzilishiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- Kirish;
- Ishni rejalashtirish;
- Auditning umumiy rejasi;
- Auditning dasturi;
- Auditning umumiy rejasi va dasturidagi o'zgartirishlar.

Ushbu AXSning maqsadi moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish buyicha standartlarni belgilash va qo'llanma taqdim etishdan iborat. Auditorlik ishini mos ravishda rejalashtirish auditning muhim jabhalariga tegishli e'tibor qaratish, ehtimoliy vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni belgilash va ishlarni qisqa muddatlarda bajarishni ta'minlashga yordam beradi. Rejalashtirish hajmi subyekt kattaligi, auditning murakkabligi, auditning ushbu subyekt bilan ish tajribasi hamda biznesni bilishlikka bog'liq.

Auditning umumiy rejasi va auditning dasturi audit o'tkazish vaqtida lozim bo'lishiga qarab qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin. Auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirish jarayonida xalqaro audit me'yorlarining 2-sonli "Auditorni mijoz oldidagi majburiyat xati", 3-sonli "Auditni tartibga soluvchi asosiy prinsiplar", 4-sonli "Rejalashtirish" va O'zbekiston Respublikasining "Rejalashtirish" nomli 3-andozalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu andozalarda ilgari surilgan asosiy mazmun auditorlik tekshiruvini sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish uchun rejalashtirish jarayonining zarurligini asoslab berishdir. Auditor o'z ishini shunday rejalashtirishi kerakki, bu narsa unga belgilangan vaqt ichida tovar operatsiyalari, ularni buxgalteriya schyotlarida aks ettirish to'g'riligi haqida xolisona xulosa qabul qilish imkonini berishi lozim. Reja mijoz korxonaga faoliyati to'g'risida to'plangan ma'lumotlarga asoslanishi lozim. Mijoz to'g'risida ma'lumotlar to'plash, o'tkazilishi kutilayotgan auditorlik tekshiruvining maqsadlari bilan bog'liq.



1-rasm Auditorlik xulosasini bayon qilishga asos bo'lib auditorlik hisoboti¹

¹ Muallif ishlanmasi

Auditorlik hisobotida auditorlik tekshiruv reja va dastur asosida o'tkazilganligi e'tirof etilgan. Hisobotda auditor tomonidan chunonchi quyidagi ishlar amalga oshirilganligi ta'kidlangan:

“Auditorlik hisobot va auditorlik xulosasi” № 70 son AFMSiga muvofiq auditorlik hisobotida quyidagilar ochib berilgan:

Ichki nazorat tizimini tekshirish natijalari (batafsil yoritilishi kerak);

Buxgalteriya hisobi axvolini tekshirish natijalari;

Aktivlar saqlanishini tekshirish yakunlari;

Byudjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitobni tekshirish yakunlari;

Moliya xo'jalik faoliyati davomida me'yoriy-xukukiy xujjatlarga rioya qilinishini tekshirish yakunlari.

Hisobotni bayon qilishda tekshirish davomida auditorlar tomonidan aniqlangan kamchiliklar va qonun buzilishlarni tugatish bo'yicha tavsiyalar keltiriladi.

Audit o'tkazish jarayonida ma'lumotlarning quyidagi manbalaridan foydalanilganligi e'tirof etilgan:

Jamiyatning moliyaviy hisoboti;

Bosh jurnal, oborot-saldo vedomostlari, birlamchi buxgalteriya xujjatlari, Jamiyat bo'yicha buyruq va farmoyishlar;

Hisob siyosati, mexnat jamoasi yig'ilishi bayonnomalari, qarorlar, boshqa moliyaviy va boshqa xujjatlari;

Jamiyat xodimlarining ma'lumotlari;

Ma'lumotlarning boshqa manbalari.

Audit quyidagi me'yoriy xujjatlari talablariga mos ravishda o'tkazilgan:

➢ O'zbekiston Respublikasi Auditorlik Faoliyati Milliy Standartlari;

➢ O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobi Milliy Standartlari;

➢ O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni;

➢ O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni;

➢ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi;

➢ Yuridik shaxslarni soliqqa tortish bo'yicha amaldagi me'yoriy xujjatlari;

➢ Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi boshqa me'yoriy xujjatlari.

Auditorlik hisoboti tarkibiy tuzilishi va mazmunidan kelib chiqib, shuningdek savdo faoliyati xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tovar operatsiyalari auditing reja va dasturini keltiramiz. Ular 2.1 va 2.2-jadvallarda keltirilgan.

Tovar operatsiyalari auditing reja²

1-jadval

“Kelishildi” “Tasdiqlayman”
« SAMARQAND DORI-DARMON »Aj
«Prokar Ekspert Audit» auditorlik
raxbari.F.A. Shermatov tashkilotining
rahbari

M.Karimov

Audit reja
 (“Tovar operatsiyalari”ni tekshirish buyicha)

Tekshiriladigan xujalik subyekti: « SAMARQAND DORI-DARMON »Aj

Audit davri 15-martdan -5-aprelgacha 2026 yil

Auditni utkazishga ketadigan vakt (kishi/soat)

2 kishi, bir kunda 8 soat (160 kishi/soat)

Auditorlik guruxining raxbari

: Ismoilov O

Bajaruvchi:

B.Salimov, M.Karimov

Rejalashtirilgan auditorlik xatari -5%

Rejalashtirilgan natijalarning haqiqiylik darajasi- 95%

Nö	Audit jarayonidagi ish xajmi	Bajarilish davri	Bajaruvchi	Izox
1	2910“Ombordagi tovarlar”ni tekshirish	Bir kun	Ismoilov O	

2	2911 tovarlar ni tekshirish	Ikki kun	Fayzullayev U	
3	2913 tovarlar(chakana)»ni tekshirish	Bir kun	Fayzullayev U,	
4	2916«Tovarlar (qayta ishlangan yog' -moy)»ni tekshirish	Bir kun	Ismoilov O	
5	2950“Tovar osti idishlari va bush idishlar”ni tekshirish	Ikki kun	Ismoilov O	
6	2970“Yo'ldagi tovarlar”ni tekshirish	Ikki kun	Fayzullayev U,	
7	Tekshirish natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish	Bir kun	Ismoilov O	

Auditorlik guruxining

raxbari(auditor) :

M.Karimov

2-jadval

Tovar operatsiyalari auditing dasturi³

“Kelishildi” “Tasdiqlayman”
« SAMARQAND DORI-DARMON »Aj
«Prokar Ekspert Audit» auditorlik
raxbari.F.A. Shermatov tashkilotining
rahbari

A.Sanayev

Audit reja
 (“Tovar operatsiyalari”ni tekshirish buyicha)

Tekshiriladigan xujalik subyekti: « SAMARQAND DORI-DARMON »Aj

Audit davri 15-martdan -5-aprelgacha 2026 yil

Auditni utkazishga ketadigan vakt (kishi/soat)

2 kishi, bir kunda 8 soat (160 kishi/soat)

Auditorlik guruxining raxbari

: Ismoilov O

Bajaruvchi:

B.Salimov, M.Karimov

Rejalashtirilgan auditorlik xatari -5%

Rejalashtirilgan natijalarning haqiqiylik darajasi- 95%

Nö	Tekshiriladigan masalalar mazmuni	Auditorlarning ishchi Hujjatlari	Tekshirish usullari
1	Tovarlarning buxgalteriya hisobidagi koldigini aniklash	Bosh kitob, buxgalteriya balansi	Buxgalteriya balansini bosh kitob bilan solishtirish
2	Tovarlarning haqiqiy miqdorini aniqlash(inventarizatsiya o'tkazish)	Moddiy javobgar shaxslar hisoboti, inventarizatsiya qaydnomasi	Inventarizatsiya, tanlab kuzatish
3	Tovarlari bahosining to'g'riligini tekshirish	Savdo ustamasining hisob-kitobi	Iktisodiy, indekslar, takkoslash
4	Tovarlari harakatini buxgalteriya hisobida to'g'ri yuritilishini tekshirish	Boshlangich hujjatlar jurnal - order va kaydnomalar	Solishtirish usuli
5	Tovar nobudgarchiliklarining mavjudligi va hisobini tekshirish	Bosh kitob, tabiiy kamayish hisob-kitobi	Takkoslash usuli
6	Realizatsiyadan olingan moliyaviy natijani tekshirish	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl), bosh kitob ma'lumotlari	Solishtirish, takkoslash usuli
7	Tekshirish natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish	Tekshirish natijalari umumlashtirilgan jadval	Jadvallar, auditorlik taxil

Auditorlik guruxining


raxbari(auditor)

M.Karimov

² Muallif ishlanmasi

³ Muallif ishlanmasi

Auditorlik tekshiruv rejasi tayyor bulgach, auditor uni tanishib chiqish va o'z fikrini bildirish uchun mijoz korxonaga rahbariga taqdim qiladi. Fikrlardagi nomuvofiqlik bartaraf qilinib, reja rahbariyat tomonidan maqqullangach, korxonada auditorlik tekshiruviga tayyorgarlik bo'yicha harakat boshlanadi. Korxonaga rahbari va bosh hisobchisi firmani auditorlik tekshiruviga tayyorlash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqib, ularning har birini bajarish bo'yicha mas'ul xodimlarni va ishlarni amalga oshirish vaqtini belgilab quyadilar. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini kompleks yoki tematik audit tekshiruvidan o'tkazish auditni tashkil etishning 2-bosqichini tashkil etadi. Ushbu bosqichni auditorlar 1-bosqichda tuzilgan dasturga muvofiq olib boradilar. Dasturga kirgan har bir mavzu yoki obyekt tekshirishda auditorlar ma'lum ketma-ketlikda amal qilishlari, tekshirishni yuqoridan pastga qarab yoki pastdan yuqoriga qarab tekshirish usullaridan biriga amalga oshirishlari lozim. Pastdan yuqoriga qarab tekshirish eng qulay usul hisoblanadi. Ushbu usulga muvofiq, auditor har bir obyekt buyicha ma'lumotlarni boshlang'ich hujjatlardan tortib to hisobotda aks ettirilgan ko'rsatkichgacha tizimlab chiqadi. Auditor barcha tekshirish obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni boshlang'ich hujjatlar asosida o'zining kompyuteriga kiritib boradi, oraliq ma'lumotlarni oylik, choraklik, yarim yillik, to'qqiz oylik va yillik davrlar bo'yicha jamlaydi. Boshlang'ich hujjatlar bo'yicha isbotlarni to'plash chog'ida ularning to'g'ri tuzilganligini tekshiradi, ularning baholarni va soniy-summaviy miqdorlarni shartnomalar bilan taqqoslaydi. Har oylik ma'lumotlarning Bosh kitobdagi mos schyotlarning ma'lumotlari bilan uyg'unligini tekshiradi. To'plagan ma'lumotlarni "Buxgalteriya balansi", "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot" va hisobotning boshqa shakllarida aks ettirilgan ma'lumotlar bilan taqqoslab ko'radi. To'plagan isbotlarni hisob va hisobot ma'lumotlari bilan mos kelishi tekshirilayotgan obyekt hisobi to'g'ri olib borilganligidan, mos kelmasligi esa xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilganligidan darak beradi. Mos kelmaslik auditorning chetlanishlar bo'yicha keyingi isbot-u dalillarni yig'ishni talab etadi. Xuddi shunday ketma-ketlik, ma'lumotlarni yig'ish tartibi auditning barcha obyektlari bo'yicha amalga oshiriladi. Shundan qilib, auditorlik tekshiruv barcha obyektlar bo'yicha quyidagi umumiy metodologik tartibda amal qilingan holda o'tkazilishi lozim (2.1-rasm).



2-rasm. Auditni o'tkazishning umumiy metodologik tartibi⁴

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, savdo korxonalarida tovar operatsiyalari auditining tashkiliy ta'minoti auditorlik tekshiruvlarining sifati va samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. Auditing and Assurance Services. 18th Edition. Pearson Education, 2023.
2. International Federation of Accountants (IFAC). Handbook of International Quality Management, Auditing, Review and Other Assurance Pronouncements. New York, 2024.
3. KPMG. Internal Control and Audit Effectiveness Report. London, 2024.

⁴ Muallif ishlanmasi

Savdo korxonalarida faoliyatida tovarlar asosiy aylanma aktiv sifatida katta ulushni egallaganligi sababli ularning harakati, saqlanishi, realizatsiyasi va hisobdan chiqarilishi ustidan samarali nazorat o'rnatish korxonaga moliyaviy natijalarining haqqoniy shakllanishini ta'minlaydi.

O'rganishlar natijasida aniqlanishicha, tovar operatsiyalari auditining samaradorligi auditorlik tekshiruvlarini puxta rejalashtirish, ichki nazorat tizimini baholash, audit risklarini aniqlash va auditorlik dalillarini yetarli darajada shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir. Auditning tashkiliy ta'minoti qanchalik mukammal bo'lsa, auditorlik xulosalarining ishonchlilik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, savdo korxonalarida uchraydigan asosiy muammolar qatoriga tovarlarning qabul qilinishi va realizatsiyasini hujjatlashtirishdagi kamchiliklar, inventarizatsiya natijalari bilan hisob ma'lumotlari o'rtasidagi tafovutlar, ichki nazorat tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda ayrim hollarda audit risklarini baholash mexanizmlarining samarali qo'llanilmayotganligi kiradi. Mazkur holatlar moliyaviy hisobotlarning ishonchlilikiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuningdek, zamonaviy audit amaliyotida raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarining joriy etilishi audit sifatini oshirish, auditorlik dalillarini tezkor yig'ish va qayta ishlash hamda audit risklarini samarali boshqarish imkonini berayotgani aniqlandi. ERP tizimlari, elektron ombor hisobi va ma'lumotlar tahlili vositalaridan foydalanish auditorlik tekshiruvlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, savdo korxonalarida tovar operatsiyalari auditining tashkiliy ta'minoti xalqaro audit standartlari asosida takomillashtirish audit natijalarining ishonchlilikini oshirish, ichki nazorat tizimini mustahkamlash va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Takliflar

Savdo korxonalarida tovar operatsiyalari auditini tashkil etishda xalqaro audit standartlari talablarini to'liq joriy etish va audit jarayonlarini mazkur standartlar asosida rejalashtirish zarur.

Auditning tashkiliy ta'minotini takomillashtirish maqsadida korxonalarda ichki nazorat tizimini kuchaytirish, ayniqsa tovarlarni qabul qilish, saqlash va realizatsiya qilish jarayonlarida nazorat mexanizmlarini rivojlantirish lozim.

Tovar operatsiyalarini audit qilishda riskga asoslangan audit yondashuvini keng qo'llash va audit risklarini muntazam baholab borish tavsiya etiladi.

Inventarizatsiya jarayonlarini takomillashtirish, ularning muntazam o'tkazilishini ta'minlash hamda inventarizatsiya natijalaridan auditorlik dalili sifatida samarali foydalanish zarur.

Savdo korxonalarida elektron ombor hisobi, ERP va boshqa raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali audit jarayonlarini avtomatlashtirish maqsadga muvofiq.

Auditorlik tashkilotlari tomonidan zamonaviy axborot texnologiyalari va ma'lumotlar tahlili vositalaridan foydalanishni kengaytirish audit samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Auditorlarning kasbiy malakasini muntazam oshirish, xalqaro audit standartlari va zamonaviy audit metodologiyalari bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini kengaytirish lozim.

Tovar operatsiyalarini rasmiylashtirish bilan bog'liq birlamchi hujjatlar aylanishini takomillashtirish va elektron hujjat almashinuvi tizimlarini keng joriy etish tavsiya etiladi.

Auditorlik tekshiruvlari yakunlari bo'yicha korxonaga rahbariyatiga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan amaliy tavsiyalar berish amaliyotini kuchaytirish zarur.

Savdo korxonalarida audit natijalari asosida ichki nazorat va boshqaruv tizimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish orqali tovar operatsiyalarining shaffofligi va samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, savdo korxonalarida tovar operatsiyalari auditining tashkiliy ta'minotini takomillashtirish audit sifatini oshirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchlilikini ta'minlash hamda korxonalarining iqtisodiy samaradorligini yuksaltirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

4. Messier W.F., Glover S.M., Prawitt D.F. Auditing and Assurance Services: A Systematic Approach. 12th Edition. McGraw-Hill, 2023.
5. IFRS Foundation. IAS 2 Inventories and Related Guidance. London, 2024.
6. Deloitte. Digital Transformation in Audit and Inventory Management Survey. 2024.
7. Whittington O.R., Pany K. Principles of Auditing and Other Assurance Services. 23rd Edition. McGraw-Hill Education, 2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining auditorlik faoliyatini rivojlantirish va xalqaro standartlarni joriy etishga oid qarorlari hamda normativ-huquqiy hujjatlari, 2023–2025.
9. PwC. Global Inventory Audit and Risk Management Report. 2024.
10. Xasanov Farrux Ravshanovich. (2026). O'zbekiston sug'urta tashkilotlari faoliyatida risklarni boshqarishni takomillashtirishda xalqaro standartlarning o'rni va ahamiyati. Insurance market of Uzbekistan, 3(1), 62–64. https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss1/368